

OrientationweekTIAAME2019 Loyihasi 4-yakuniy kun o'z yakuniga yetdi. Muvaffaqiyatli yakun!

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti 1-bosqich talabalari uchun tashkil etilgan "Tanishtiruv haftaligi #Orientationweektiame2019" loyihasi 4-kuni ya'ni, yakuniy kuni ham o'z nihoyasiga yetdi. Dastlab, Tasdiqlangan dastur asosida institut Xalqaro Hamkorlik bo'limi, Xalqaro grantlar, loyihalar, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik haqida talabalarga ma'lumot berishdi. Yuqoridagi mavzular yuzasidan Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha Prezident stipendiyasi sohibi, IEITS 7 Sertifikatiga ega bo'lgan Doktorant Mamanbek Reyimov hamda Xalqaro hamkorlik bo'limi mutaxassislari o'z taqdimotlarini 1-bosqich talabalar e'tiboriga havola etishdi. 1-juftlik yarmida Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat targ'ibotchisi Rahimboy Jumaniyozov bilan davra suhbatini o'tkazildi. Notiq 1-bosqich talabalariga o'zining samimiy tilaklarini bildirib, notiqlik san'ati haqida o'z bo'lsada, tushuncha berib, talabalarni xursand ayladi. Shundan so'ng #Orientationweektiame2019 loyihasi yakunlanishi tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirni Institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor Sultanov Toxir Zokirovich ochib berdi. 1-bosqich Talabalarga o'zining samimiy tilaklarini bildirib, talabalik baxti bilan tabrikladi.





Prorektorimiz institutda amalga oshirilayotgan islohotlar, professor-o'qituvchilar salohiyati, mahalliy va xorijiy reytingda institutning tutgan o'rni, ilmiy yo'nalishdagi tanlovlar, institut yoshlari ilmiy va innovatsion faoliyati, tijoratlashtirish yo'nalishlari haqidagi o'z taqdimoti bilan 1-bosqich talabalari va yig'ilganlarga ma'lumot berdi. Tadbir so'ngida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O-week-TIAME loyihasi tashkilotchilarining bir guruhini institut rahbariyati nomidan taqdirladi va talabalar ichiga yana bir bor kirib barcha moderatorlarni, facilitatorlarni chaqirib, olqishladi, esdalik uchun sur'atga tushildi. 1-bosqichlar uchun alohida taqdimot qilib, vaqtlarini ayamay tashrif buyurgan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorimizga alohida rahmat, yoshlar nomidan. Barcha tashkiliy ishchi guruh a'zolariga, institut rahbariyatiga, "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti rahbariyatiga va barchaga sharoit va qo'llab-quvvatlash uchun talabalar nomidan rahmat aytamiz. Muhimi, prorektorimiz bizning talabalarga o'z taqdimotlarini namoyish etib berdilar. Bizning loyihada ishtirok etgan barcha 1-bosqich talabalari o'quv jarayoniga tayyor. Barcha xursand va minnatdor.





Talabalar oliy ta'lim muassasasidan chiqib, Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylariga Mustaqillik maydoni, Saylgoh ko'chasi, Amir Temur xiyoboni va boshqa joylariga sayohat qilishdi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti 1-bosqich talabalari uchun tashkil etilgan #Orientationweektiiame2019 loyihasi yakunlandi. Barcha 1-bosqich talabalari tashkilotchilarga, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va institut rahbariyatiga minnatdorchilik bildirishdi. Biz boshqa katta loyihalarni amalga oshirishda davom etamiz bizni kuzatib boring. HURMAT BILAN TIAME yoshlari. Talabalarga e'tibor kelajakga e'tibor.

Institut Matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov